I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 30708,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 10,4 % ga o'sdi.

Yanvar-mart oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		*2021-yil yanvar-martga nisbatan foiz hisobida*
	2021-yil	*2022-yil*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**25720,8**	**30708,6**	**110,4**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	22843,9	27073,1	109,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	2876,9	3635,5	116,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	**22843,9**	**27073,1**	**109,7**
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	**9567,5**	**11296,6**	**111,3**
Sanoat	7496,1	8451,4	110,1
Qurilish	2071,4	2845,2	115,7
Xizmatlar	**13276,4**	**15776,5**	**108,5**
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3449,7	4187,2	109,1
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	2707,6	3533,3	126,9
Boshqa xizmat tarmoqlari	7119,1	8056,0	101,3

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘sish sur’atlari, *foizda*
(2022- yil yanvar-mart oylarida)



Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur’atlari YAHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 110,1 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 31,2 %), qurilish – 115,7 % (10,5 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 109,1 % (15,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 126,9 % (13,1 %) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 101,3 % (29,7 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)



2022-yil yanvar-mart oylari davomida Toshkent shahri bo‘yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 15,5 % ni (2021- yil yanvar-martda 15,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 13,1% ni (11,9 %), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 29,7 % ni (31,1 %) tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi,
(jamiga nisbatan foizda)



Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 88,2 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) tarmog‘i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 41,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 58,3 % ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart oylari davomida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 10695,8 ming so‘mni tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga o‘sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 48,5 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-mart oylari, jamiga nisbatan ulushi)



O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo‘shgan hissasi 18,9 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 punktga o‘sgan.

Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, *foizda*